

TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYON JARAYONLARDAN SAMARALI FOYDALANISH IMKONIYATLARI

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

MATERIALLARI

SAMARQAND – 2024

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Navoiy viloyati Turizm boshqarmasi

“Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti

Turizmni rivojlantirish instituti

Qozon Federal universiteti

Tambov davlat universiteti

L.N.Gumilev nomidagi Evroosiyo milliy universiteti

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“TURIZM” KAFEDRASI

“TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYON JARAYONLARDAN SAMARALI FOYDALANISH IMKONIYATLARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

MATERIALLARI

Konferensiya, O‘zbekiston Respublikasi Perezidentining 2023-yil 26-apreldagi “Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-135 sonli Qarori ijrosi yuzasidan o‘tkazildi

(2024-yil 25-oktabr)

SAMARQAND-2024

Turizm sohasini rivojlantirishda innovatsiyon jarayonlardan samarali foydalanish imkoniyatlari. / 2024-yil 25-oktabr. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Samarqand, SamISI, 2024.-615 bet.

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchilar:
S.A.Abduhamidov-kafedra mudiri, dotsent
G.R.Tursunova-kafedra dotsenti v.b.
A.Y.Talibova-kafedra o‘qituvchisi

Nashr uchun mas’ullar:
I.S.Tuxliyev-kafedra professori, i.f.d.
R.S.Amriddinova-kafedra dotsenti, i.f.n.
A.P.Maxmudova-kafedra dotsenti, i.f.f.d.
R.Hayitboyev-kafedra dotsenti v.b.

Ilmiy-amaliy konferensiya materiallarida Turizm sohasini rivojlantirishda innovatsion jarayonlardan samarali foydalanishning nazariy-metodologik masalalari, raqamli iqtisodiyot sharoitida xalqaro va ichki turizmni rivojlantirish tendensiyalari va istiqbollari, uchinchi renessansni shakllantirishda turizmning rivojlanishi: muammolar va yechimlar, raqamli hamda innovatsion texnologiyalardan foydalanishda iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlarini rivojlantirish istiqbollari, Navoiy viloyatida turizm xizmatlarini diversikatsiya qilish tendensiyalari bo‘yicha ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarga boy maqolalar o‘rin olgan.

Professor-o‘qituvchilar, talabalar, magistrlar, tadqiqotchilar va soha mutaxassislariga mo‘ljallangan.

Maqolalar mualliflar tahririda bosilmoqda. Ularda keltirilgan raqamlar, faktlar, xulosa va tavsiyalarga mualliflar mas’ul. Ularning ayrim fikrlari tashkiliy guruh qarashlariga to‘g‘ri kelmasligi mumkin.

© Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2024

turizm hamda mehmondo‘stlik industriyasining barcha tarmoqlari va elementlari ishtirok etadi”[32].

A.Sh.Berdimurodov-SamISI dotsenti,
S.O.Xamroyeva-SamISI magistranti

TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION JARAYONLARDAN SAMARALI FOYDALANISH VA BU YO‘LDAGI XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBALARIDANI O‘RGANISH MASALALARI

Аннотация: В данной статье рассматриваются достижения в сфере туризма, достигнутые в последние годы благодаря использованию современных технологий, а также поднимаются вопросы развития туристической отрасли в нашей стране с применением этих возможностей.

Ключевые слова: туризм, экономическая эффективность, сервисное обслуживание, искусственный интеллект, предприятия общественного питания, спрос клиентов, гостиничный бизнес.

Abstract: This article examines the achievements in the field of tourism in recent years resulting from the use of modern technologies, as well as raises issues concerning the development of the tourism industry in our country through the application of these technological opportunities.

Key words: tourism, economic efficiency, service, artificial intelligence, public catering, customer demand, hotel business.

XXI asr texnologiyalari bugungi kunda xalq xo‘jaligining barcha sohalariga o‘z ta’sirini ko‘rsatayotgani va bu o‘z navbatida ushbu sohalarni jadal rivojlanishga olib borayotgani barchamizga ma’lum. So‘nggi bir necha yilliklarda texnologiya hayratlanarli darajada rivojlandi. Smartfonlar, internet, bulutli hisoblar va boshqa yuzlab ixtirolar hayotimizning barcha jabhalarini o‘zgartirmoqda. Aloqa, biznes, hukumat, sayohat va hatto qishloq xo‘jaligi sohalari ushbu ixtirolar ta’sirida sezirali darajada ijobiy tomonga o‘zgardi. Shu jumladan bugungi kunda turizm sohasida ham yangi innovatsiyalar sababli ko‘plab yutuqlarga erishilmoqda. Aslida turizm sohasi rivojlanishi tarixini azaldan texnologiyalarsiz tassavur qilish mumkin emas. Ya’ni, turistlarning eng zaruriy vositasi bo‘lgan transportlar poezdlar va samolyotlarni turizmni rivojlantirishdagi ilk texnologiyalar desak adashmagan bo‘lamiz. Bugungi texnologiyalar asrida ham ushbu sohani rivojlantirishda ko‘plab ijobiy yangiliklar amalga oshirilmoqda. Jumladan turizmni rivojlantirishda asosiy ahamiyatga ega bo‘lgan mehmonxonalarda sun’iy intellekt orqali turistlarga ko‘rsayilayotgan yangicha xizmatlar sayyohlarga yanada qulayliklar yaratmoqda va bu o‘z navbatida ularni ushbu davlatga yana qaytish istagini tug‘dirmoqda. Endilikda turist sayohat qilishni ko‘zlagan shahridagi istalgan mehmonxonani o‘z uyidaligidayoq uyali aloqa vositasi yoki kampyuteridagi arzimagan bir necha tugmachani bosish orqali oldindan bron qilish imkoniga ega. Bu esa so‘ngi

32 Xamitov M.X. Turizm sohasida mehmondo‘stlik industriyasi tushunchasi va uning o’ziga xos xususiyatlari // “O‘zbekistonni top 10 turistik hududlar qatoriga kiritish istiqbollari: barqaror rivojlanish imkoniyatlari” mavzusida xalqaro onlayn ilmiy-amaliy anjumani, Buxoro – BuxDU 2020 yil 11-12 dekabr, 210-213 b.

yillarda turizmning jadal rivojlanishiga sabab bo‘lmoqda. Ushbu maqola orqali yuqorida keltirib o‘tilgan yangicha texnologik imkoniyatlar orqali turizm sohasini rivojlantirish imkoniyatlari bilan yaqindan tanishib chiqamiz.

Mehmonxonalar tarixi va zamonaviy dunyo mehmonxonalari, ulardagi servisning boshqarish tuzilmasi, xizmatlar ko‘rsatish jarayonini avtomatlashtirish, bo‘limlar va personalning vazifalari, mehmonxona marketing va sotuvlar xizmati, animatsiya va ekologik menejment haqida ma’lumotlar A.A.Eshtaev, O.X.Xamidov kabi yurtimiz olimlari tomonidan tadqiq etilgan.

I.S.Tuxliyev, R.Hayitboyev, B.Sh.Safarov, G.R.Tursunovalar “Turizm asoslari” o‘quv qo‘llanmasida bozor munosabatlari sharoiti asosida turizmni rivojlantirishning asosiy tamoyillari va turizm to‘g‘risidagi me’yoriy hujjatlar, mahalliy, milliy va hududiy turizmni rivojlantirishning tamoyillari va metodlarini qo‘llash orqali sezilarli darajada iqtisodiy daromad olishga alohida e’tibor berilgan.

Ammo, yutimizda turizm sohasini rivojlantirishda xorijiy davlatlar tajribalaridan foydalangan holda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish masalalari hali yetarlicha tadqiq etilmagan jihatdir.

Bugungi kunda turistlar orasida va turizm sohasi vakillari uchun ancha ommalashgan ilova Booking.com bo‘lib, ushbu ilova orqali turistlar istalgan shahardagi turli toifalardagi mehmonxonalar nomerlari va undagi xizmatlar bilan tanishish va agar istasalar oldindan to‘lovlarni amalga oshirib bron qilish imkoniga egalar.

1996-yilda Amsterdamda tashkil etilgan, Booking.com gollandiyalik kichik “start up”dan dunyodagi yetakchi raqamli sayyohlik kompaniyalaridan biriga aylandi. “Booking.comning vazifasi hamma uchun dunyoni his qilishni osonlashtirishdir” deydi uning tashkilotchilari. Turizm sohasidan turli noqulayliklarni olib tashlashga yordam beradigan texnologiyaga sarmoya kiritib, Booking.com millionlab turistlarnilarni unutilmas sayohatlar, bir qator transport imkoniyatlari va qolish uchun ajoyib joylar: turistik uylardan tortib besh yulduzli mehmonxonalargacha muammosiz ta’minlay oladi. Taniqli brendlar va barcha o‘lchamdagi tadbirkorlik uchun dunyodagi eng yirik sayohat bozorlaridan biri sifatida, Booking.com butun dunyodagi tadbirkorlarga global auditoriyaga erishish va o‘z bizneslarini rivojlantirish imkonini beradi. Agar ushbu veb-sayt haqidagi raqamlarga nazar tashlasak, Booking.com 43 tilda mavjud bo‘lib, 28 milliondan ortiq turar joy ro‘yxatini taqdim etadi, jumladan, 6,6 milliondan ortiq uylar, kvartiralar va boshqa noyob turar joylar ro‘yxatini mijozlarga taqdim etadi. Qayerga borishni xohlayotganingizdan qat’i nazar Booking.com buni osonlashtiradi va kuniga 24 soat mijozlarga xizmat ko‘rsatadi[33]. Ushbu veb-sayt orqali turistlar nafaqat mehmonxonalarni bron qilishlari balki avtomabillar ijarasi va shahardagi diqqatga sazovor turistik obyektlar va ularda sayohatni amalga oshirish narxlari haqida ham kerakli ma’lumotlarga ega bo‘lishlari mumkin.

Turizmning ajralmas va eng yuqori ahamiyatga ega jihatlaridan yana biri bu turistlarning ovqatlanishini tashkil etish servisidir. Har bir turist boshqa

[33] Booking.com: O Booking.com™

shaharga qanday maqsadda borishidan qat'i nazar albatta o‘sha joydagi taomlardan istemol qiladi, bu esa sayohatchining shu shaharga bo‘lgan fikrini tubdan o‘zgartirib yuborishi mumkin. Shu sababli hozirda deyarli barcha davlatlar turizmni rivojlantirish maqsadida umumiy ovqatlanish korxonalarini rivojlantrishga katta e'tibor qaratmoqda va bu yo‘lda yangi texnologiyalardan samarali foydalanilmoqda.

So‘ngi kunlarda qulog‘imizga tez-tez chalinayotgan sun'iy intellekt termini turli sohalarni zamonaviy texnologiyalar bilan boyitayotgan dastur desak, adashmagan bo‘lamiz.

"Sun'iy intellekt"-(SI; inglizcha: artificial intelligence, AI)-inson intellektiga taqlid qilishga qodir bo‘lgan mashinalar yaratishga qaratilgan fan va texnologiya sohasi[34].

Bugungi texnologiyalar rivojlanish davrida sun'iy intellektdan foydalanilgan holda umumiy ovqatlanish korxonalari faoliyatini yaxshilash jadallik bilan rivojlanib bormoqda. Quyida Janubiy Koreya davlatining bu yo‘ldagi erishayotgan yutuqlari haqida bir necha fikrlar keltirilgan.

Hozirda raqamli texnologiyalarning rivojlanishi natijasida Janubiy Koreyaning umumiy ovqatlanish korxonlarida sun'iy intellektga asoslangan robotlashtirilgan tizimdan foydalanish ommalashmoqda.

Aslida XXI asr texnologiyalar davrida hayotimizning turli jabhalarida sun'iy intellekt ta'sirini sezish mushkul emas. Jumladan, jahondagi rivojlangan davlatlarining umumiy ovqatlanish korxonalarida bugungi kunda robotlashtirilgan tizim ko‘plab uchramoqda va Janubiy Koreya davlati buning yaqqol dalilidir.

Janubiy Koreya davlatidagi oziq-ovqat xizmatlari bozori o‘sib borayotgan infratuzilma va transport rivojlanishi bilan birga tez ovqatlanishga talabning ortishi bilan bog‘liqlikda rivojlanib kelmoqda. Janubiy Koreyaning oziq-ovqat xizmatlari sanoatini to‘liq xizmat ko‘rsatadigan restoranlar, tez xizmat ko‘rsatadigan restoranlar, ko‘cha savdo rastalari va kiosklar, kafe va barlar hamda boshqalarga bo‘lish mumkin. Ushbu mamlakatda umumiy ovqatlanish bozori mustaqil oziq-ovqat xizmati va zanjirli ovqatlanish xizmatiga bo‘linadi. Yuqoridagi bozorning asosiy ishtirokchilari "Starbucks", "Yum! Brands", "McDonald's", "Balwoo Gongyang", "Yongsusan", "Burger King" va boshqalar hisoblanadi[35]. Ushbu brendlar hozirda sun'iy intellektdan foydalangan holda o‘z bizneslarida yuqori natijalarga erishmoqdalar. Ulardan biri online buyurtma berish va buyurtmani maxsus dronlar orqali yetkazib berish xizmatidir. Bu mijozlar va umumiy ovqatlanish korxonalari biznesi uchun ham katta qulaylik yaratdi. Endilikda mijoz taom buyurtma qilganidan keyin atiga bir necha daqiqalar ichida maxsus dronlar orqali taomni qabul qilib olishi mumkin. Agar Janubiy Koreya davlati restoranlariga odatiy ravishda tashrif buyurib ovqatlanishni xohlasangiz u holda ham restoranda bir necha sun'iy intellekt

[34] https://uz.wikipedia.org/wiki/Sun%CA%BCiy_intellekt
[35] https://zenodo.org/records/10411147

yaratgan texnologiyalar orqali ko‘rsatilayotgan xizmatlarni qabul qilishingiz mumkin.

Umumiy ovqatlanish korxonalarida taomlarni xo‘randalarga tashiyotgan robotlarni ko‘rish Janubiy Koreyada tabiiy holga aylanib qolgan. Undan tashqari endilikda oshxonalarda taom tayyorlash jarayonida bajariladigan xavfli va murakkab operatsiyalar ham maxsus robotlar orqali bajarilmoqda. Bu esa o‘z navbatida ishchi kuchini kamaytirgan holda ularga sarflanadigan xarajatlarni tejamoqda hamda, umumiy ovqatlanish korxonalari iqtisodiyoti bu orqali katta foyda ko‘rmoqda.

Barchamizga ma’lumki so‘ngi yillarda aksariyat aholi noto‘g‘ri ovqatlanish orqali kelib chiqadigan kasalliklardan aziyat chekmoqda. Shu sababli barchamiz iste’mol qilayotgan taomlarimizning ozuqaviy qiymati haqida xabardor bo‘lishimiz zarur. Hozirda ovqatlanish korxonalari taqdim etayotgan elektron menyu turli taomlar va ularning narxlari, tarkibi bilan birgalikda ularning ozuqaviy qiymatini ham mijozlarga taqdim etmoqda. Bu esa barcha mijozlar uchun qulaylik yaratmoqda.

Sun’iy intellekt yaratgan texnologiyalar bilan har qanday ovqatlantirish xizmatlarini qiziqarli va osonlik bilan tashkil qilish mumkin. Umumiy ovqatlanish korxonalarida mijozlar buyurtmasi tayyor bo‘lguniga qadar ularni zeriktirib qo‘ymaslik va ularni shu joyga bo‘lgan qiziqishini oshirish uchun sun’iy intellekt yaratgan “5J” formatdagi turli shou tomoshalar tashkil qilinmoqda.

Oziq-ovqat sanoatini avtomatlashtirish oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, saqlash, yetkazib berish, xizmat ko‘rsatish va iste’mol qilishda inqilob qildi. Umumiy ovqatlanish korxonalarida sun’iy intellekt yaratgan texnologiyalardan foydalanish taminot zanjiri logistikasini optimallashtirdi, chiqindilarni kamaytirdi, oziq-ovqat xavfsizligi standartlarini oshirdi hamda mijozlar talabini basharot qila oldi[36].

Mamlakatimizda turizmni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlari tufayli so‘ngi yillarda yurtimiz iqtisodiyoti rivojlanishida turizm sohasining o‘rni mustahkamlanib bormoqda. Ushbu ko‘rsatkich bevosita yurtimizning so‘ngi yillardagi yalpi ichki mahsulot (YAIM) hajmiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Buni quyidagi diagramma orqali yaqqol ko‘rishimiz mumkin (1-rasm).

Ammo, yurtimizda turizm sohasida hali yechimini topmagan ko‘plab muammolar ham yo‘q emas. Barchamizga ma’lumki yurtimizda qadimiy inshootlar juda ham ko‘p, ammo ularning barchasidan ham bugungi kunda turizmni rivojlantirishda foydalana olayotganimiz yo‘q. Misol tariqasida O‘zbekistondagi turizm sohasi bo‘yicha yetakchi o‘rinda turadigan Samarqand shahridagi bir necha kamchiliklarni keltirish mumkin. Bugungi kunda turistlar orasida mashhurlikka erishgan Bibixonim masjidining ayrim hududlari antisanitariya holatida ekani ushbu hududga tashrif buyuruvchilar sonini kamayishiga olib kelishi mumkin. Ushbu inshoot atrofi va ariqlar ichi chiqindilar bilan to‘lgani, hududdagi hojatxonalar sanitariya talablariga javob bermasligi

[36] https://appinventiv.com/blog/ai-in-food-industry/

turistlarning Bibixonim masjidiga bo‘lgan qiziqishini so‘ndirishi tabiiy. Transportlar va avtomobil yo‘llarining sifati talab darajasida emasligi, undan tashqari turistlar qatnovi yuqori bo‘lgan hududlarda va yo‘llarida sun’iy bozorlarning mavjudligi viloyatning turistik salohiyatiga putur yetkazishi aniq. Samarqand viloyatidagi mavjud 156 ta mehmonxonalardan atiga 11 tasidagina bankomatlarning mavjudligi bizdagi turizmning sohasining innovatsion jihatdan ham ancha ortda ekanining yaqqol dalili desak adashmagan bo‘lamiz.



1-rasm. **Yurtimizdagi so‘ngi yillardagi YAIM daromadlarining o‘sish ko‘rsatgichlari**[37]

Bu samaradorlikni ushlab qolish va uni yanada rivojlantirish turizm sohasining har bir vakili uchun ustuvor vazifa hisoblanadi.

Ma’lumki, har bir sohada yangicha texnologiyalarni qo‘llash turli qiyinchiliklar va moddiy jihatdan muammolarga sabab bo‘lishi mumkin. Bu esa insonning harakatlari va qiziqishlarini cheklaydi. Balki shu sababli yurtimizda sun’iy intellekt yaratgan texnalogiyalarni sohalarda qo‘llash bir oz oqsayotgan bo‘lishi mumkin.

Ammo, keyingi yillarda hukumatimiz tomonidan yurtimizda tadbirkorlarga yaratib berilayotgan imkoniyatlar kundan kun ortib bormoqda. Tadbirkorlar uchun banklardan turli subsidyalar, uzoq muddatli, kam foizlarga mo‘ljallangan kreditlar ajratilmoqda va tadbirkorlar faoliyati davrida turli soliq to‘lovlaridan ozod qilinmoqdalar. Turizm sohasi vakillari bu imkoniyatlardan unumli foydalangan holda faoliyat yuritishsalar yurtimizda iqtisodiy o‘sish ko‘rsatgichlari turizm sababli yanada oshadi.

[37] https://invexi.org/uz/press/the-gdp-of-uzbekistan-for-the-first-quarter-of-2024-grew-by-6-2/

M U N D A R I J A

1-SHO‘BA: TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVASION JARAYONLARDAN SAMARALI FOYDALANISHNING NAZARIY-METODOLOGIK MASALALARI		
И.С.ТУХЛИЕВ С.А.АБДУХАМИДОВ	ЎЗБЕКИСТОНДА КРЕАТИВ ТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ХУСУСИЯТЛАРИ……	3
Д.Р.НАРЗИҚУЛОВ	ТУРИЗМ ФАОЛИЯТИДА ИННОВАЦИОН ЖАРАЁНЛАРНИ ҚЎЛЛАШ ХУДУДЛАРНИ БАРҚАРОР РИВОЖЛАНИШИНИ ТАЪМИНЛАЙДИ……	9
Р.С.АМРИДДИНОВА	ФОРМЫ СОТРУДНИЧЕСТВА МЕЖДУ ТУРОПЕРАТОРАМИ И ГОСТИНИЦАМИ……..……	13
SH.A.MUSAYEVA	WAYS TO IMPROVE THE TOURIST SERVICES MARKET ……. ……...	16
S.A.ABDUXAMIDOV J.M.MIRZABAYEV	TURIZM-IQTISODIYOTNING MUHIM DRAYVERI VA MILLIY IQTISODIYOTNING DAROMAD MANBAI…….	21
A.BERDIMURODOV	LEGAL-INSTITUTIONAL BASIS OF TOURISM DEVELOPMENT IN NEW UZBEKISTAN……	25
А.БЕКТЕМИРОВ	ТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ИННОВАЦИОН-ИНВЕСТИЦИОН ФАОЛЛИКНИ ОШИРИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ….....	30
И.С.ТУХЛИЕВ А.П.МАХМУДОВА	ТУРИЗМ ФАОЛИЯТИНИ ДИВЕРЦИФИКАЦИЯ ҚИЛИШГА ОИД НАЗАРИЙ БИЛИМЛАРНИНГ ШАКЛЛАНИШ ХУСУСИЯТЛАРИ……....…….	38
Х.Қ.САМАРОВ	ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ МАДАНИЙ МЕРОС ТУРИЗМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ДАСТУРИНИ ИШЛАБ ЧИҚИШ ИМКОНИЯТЛАРИ……..……...	41
M.X.XAMITOV	MEHMONXONA VA SHUNGA O‘XSHASH JOYLASHTIRISH VOSITALARINING TASNIFLANISHIGA DOIR MEZONLAR…….	46
A.BERDIMURODOV S.O.XAMROYEVA	TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION JARAYONLARDAN SAMARALI FOYDALANISH VA BU YO‘LDAGI XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBALARIDANI O‘RGANISH MASALALARI.....	50
Y.P.URUNBAYEVA M.I UMIRZOQOVA	MUZEY TURIZMI XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH BO`YICHA FIKR MULOHAZALAR……..……..	55
L.SH MIRZAYEVA	TURIZM INDUSTRIYASI SOHASIDAGI TADQIQOTLAR VA ULARNING YO‘NALISHLARI……	59
Р.С.АМРИДДИНОВА Б.Б.ДАВРОНОВА	ЗАДАЧИ НОЧНОГО АУДИТА В ГОСТИНИЦАХ….....	62
G.R.TURSUNOVA	TURISTLARNI YOSH KATEGORIYASI BO‘YICHA TASNIFLASH…….…….	65